

SCIENTIFIC AND ARTISTIC FINDINGS ON LANGUAGE IN THE WORK OF "BOBURNOMA".

Sobirov Jamshidbek

Andijan State University 3 course Student Of History Faculty

Abstract: Today, when we study classical works, many studies on "Boburnoma" attract attention. On the basis of the classical texts of "Boburnoma", it is important because many valuable information about language and fiction have been determined. This article talks about scientific and artistic findings in the work.

Key words: "Baburnoma", Babur Mirzo, Waqoe, the word "many", lexicon, the name "Kashmir".

Introduction

O'zbek mumtoz adabiyotining muazzam silsilasida Boburning o'rni alohida, albatta. Abdulla Oripov haqli ravishda qayd etganidek, Bobur - Navoiydan keyingi eng ulug' ijodkorimiz. Zahiriddin Muhammad Bobur o'n ikki yoshga to'lgunga qadar, ya'ni otasi Umarshayx Mirzo jarga qulab — "shunqor bo'lishi" dan avval ham temuriy shahzodalaridan biri sifatida maktab ta'limini olganini yoki maxsus tayinlangan ustoz ko'magida savod chiqarib, muayyan darajada bilim egallaganligi shubhasiz.

Adabiyot tahlili

Biroq o'sha dahshatli voqeadan keyin u endigina muchal yoshiga yetgan chog'ida podshoh bo'ladi, nomi xutbaga qo'shilib o'qiladi. Bundan keyingi o'ttiz olti yillik umri esa betininim jang-jadallar, g'alaba va mag'lubiyatlar bilan kechadi.

Qizi Gulbadanbegim haqli ravishda qayd qilinganidek, "Sohibqiron (Amir Temur - Z.I)" zamonidan tartib, to Firdavsmakon (Bobur) hazratlari zamonigacha o'tgan sultonlardan hech qaysisi bu kishi (Bobur) singari notinch bo'lmagan".

Darvoqe, bular Bobur qalamiga mansub "Voqoe" ("Boburnoma") da ham, hatto Muhammad Solihning "Shayboniynoma"sida ham mufassal bitilgan. Bobur Mirzo madrasa ta'limini ko'rmagan, yovqur beklar va amirlardan bo'lak uning yonida biron-bir ilm yo'nalishidagi ustoz ham bo'lmagan. Bobur nimaniki yozgan bo'lsa, bunga uning o'n, o'n ikki yoshiga qadar olgan maktab bilimi asos bo'lib xizmat qildi. Qolgani uning hayot maktabida o'qib-o'rganib, boshidan o'tgan sinoatlaridan chiqargan xulosalari negizida barpo bo'ldi. Shu bilan birga, Bobur Afg'oniston va Hindistonga muazzam bir saltanatga asos soldi Boburiylar sulolasi qariyb 332 yil

davomida hukm surdiki, tarixda buncha uzoq davr mobaynida taxt ustiga bo'lgan sulolalar kamdan kam.

Dunyo xalqlari orasida o'zaro madaniy aloqalar keng tus olgan hozirgi kunda "Voqoe" jahondagi turli tillarga tarjima qilinib, talay xalqlarning ma'naviy xazinasidan o'rin oldi. Ayni asarda ulug' shoir Boburning nasrda ham nechog'lik tengsiz bir ijodkor bo'lgani yaqqol ko'rinadi.

Ulkan bir saltanat sohibining oddiy odam sifatidagi o'y-xayollari, orzu-armonlari, nozik lutf-u mutoyibalari, odob-axloq, davlat arboblarning etiki, mamlakat ishlarini yuritish borasidagi kuzatishlardan tortib, turli dov-daraxtlar, o't-o'lanlar, ularning nomi, etimologiyasiga qadar keng va qiziqarli ma'lumotlar muallifning qomusiy bilim va salohiyatga ega bo'lganligini ko'rsatib turadi.

Bobur o'zbek adabiyotida ruboiy janri taraqqiyotini yangi bosqichga ko'targan ijodkordir. Shoir devondan qariyb ikki yuz ruboiy o'rin olgan. Ularning bir qismi an'anaviy tarzda yor vasfiga bag'ishlangan bo'lsa, boshqa bir qismi kundalik voqea-hodisalar ta'sirida yuzaga kelgan. Ammo bundan qat'iy-nazar, Bobur ruboiylari ham mazmunan, ham shaklan mukammalligi, jozibadorligi so'z o'yinlari, badiiy san'atlari bilan e'tiborga sazovor.

Bobur, necha bu dahr Meni zor aylar,
Sabrimni kamu g'amimni Bisyor aylar,
To dahr durur, budur

Aning rasmikim-Ayrib kishini azizidin, Hor aylar

So'z tanlash va uni joy-joyida qo'llash Bobur uslubida alohida o'rin tutadi. Adib ba'zi o'rinlarda shunday so'z va iboralar qo'llaydiki, uning ma'nosini ijodkorning o'sha damdagi kayfiyatidan yoki uning ayrim odamlar va hodisalar bo'lgan munosabatidan qidirishga to'g'ri keladi. Muallif bir so'z yoki iborani jumllarida takror qo'llamaydi. Masalan, asaridan o'rin olgan "ko'p" so'ziga berilgan muqobillariga nazar tashlasak, bu ma'no-besh, behad, bisyor, bebadal, bepayo, vofir, ziyod, kulli, mabzul, ma'fur, mufrid, pul, pur, arfaravon, bemumar, ko'chum, cho'x, cho'p, g'alaba, qalin va yana boshqa variantlarda berilganini ko'ramiz. Bu kabi ma'nodan so'zlarga deyarli har sahifada duch kelinadi va ularning har biri o'z joyida qo'llanganligi muallif mahoratiga dalildir.

Tadqiqot metodologiyasi

Ajdodlarimizdan o'tib kelgan bu kabi so'z va iboralar ham xalqimiz so'z xazinasining mulki albatta. Hozirda lug'aviy istifodada qayta o'z o'rnini topayotgan aksar tarixiy so'z va xilma-xil istilohlar Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy va boshqa allomalarimizning noyob asarlarida nozik did bilan ishlatilgan va mumtoz she'riyatimizning dovrug'ini oshirgan.

Garchi "eskirgan" bo'lsa ham, juda ko'p ko'hna so'z va iboralar ham barhayot, muomaladan chiqmaydi. Aksincha, yangi-yangi ma'nolar kasb etdi, yosharib boradi. "Zamonaviy" avomga tushunarli bo'lmagan kamchiliklarni tildan chiqarish emas, balki omma ma'rifatini ularni tushunish darajasiga ko'tarish kerak. Bunda izohlash, tafsir, sharh, talqin maqsadga muvofiq.

"Boburnoma" asari Boburni faqatgina turkiy tilni emas fors tilini ham xuddi shunday mukammal bilishini ko'rsatib beradi. Va o'sha davrda tillarning qanchalik kontaktda bo'lganini o'z tilida ko'rsatadi. "Boburnoma" da o'zbek tilidagi maqollar bilan bir qatorda fors tilidagi

maqollar ham ishlatilgan. Bu narsa Boburning fors-tojik klassik adabiyotinigina emas, balki folklorini, xalq tilini ham yaqin bilganida darak beradi.

“Boburnoma” da forcha she’r, maqol-matallarning tarjimasiz ishlatilishini ikkita narsadan darak beradi: avvalo yuqorida aytilganidek, Boburning fors-tojik adabiyoti, folklori, tilini yaxshi bilishini ko’rsata olgan, ikkinchidan, o’sha davrda fors tili keng tarqalganini va turkiygo’y aholi uni bemalol tushungan.

Tahlil va natijalar

Aniqlanishicha, Boburning barcha asarlari leksikasidagi forscha so’zlar salmog’i 16,08 foizni tashkil etadi. Yana bir holat ko’zga tashlanadi. “Boburnoma” da forscha so’zlarga asosan 2 xil turkiycha suffiks qo’shilgan. Va bu hodisa tillarni kontakda ekanini yana bir marta ko’rsatib beradi: Bular, -ilk (-liq, -liq, luq) va -siz.

Bobur o’zining “Boburnoma” sida ayrim tovushlarning qo’llanilishi va hatto ularda uchraydidan ba’zi jarayonlarni izohlash bilan ham tovushlar tadqiqotchisi ekanligini namoyish etadi. Bu ayni payda bizga o’sha so’zning, hatto ba’zi urg’ularning tarixini belgilash uchun ham qimmatli manba bo’lib xizmat qiladi.

Masalan, u “min” va “sin” ning almashinib qo’llanilishini “Kashmir” nomini izohlash jarayonida juda chiroyli ifodalaydi: “... bu tog’ elini kasderlar ... Hindiston eli “min” ni “sin” talaffuz qilur. Chun bu tog’da mu’tabar shahr Kashmir ... Bu jihatdin bo’la olurkim, Kashmir deyesh bo’lg’aylar”.

Xulosa

Ko’rinadiki, kas aslida kam bo’lib chiqadi va Kashmir shu tog’dagi qabila nomi bilan bog’liq. Zahiriddin Muhammad Bobur izohlagan bu fonetik jarayon haqidagi fikr yana shu bilan ahamiyatliki, u turkiy tillarga o’zining ilmiy xulosasini to’liq topdi. Bu tovushlarning har ikkalasi ham til oldi, jarangsiz, sirg’aluvchi.

Ma’lumki, Bobur bir necha tilni yaxshi bilgan. Shuning uchun bir til dan ikkinchi tilga o’tgan so’zning shu tilda ifodalagan ma’nosi, hatto o’sha o’tish davrida unda yuz bergan fonetik jarayonlarni ham izohlashga harakat qiladi. Jumladan, mo’g’ul tilida o’zlashgan “olacha” so’ziga olimning bergan izohi shu fikrga to’liq dalil bo’la oladi: “Olachaning vajhi tasmiyasi muni derlarkim, qashshoq va mo’g’ul tili bila o’ldirguchini “olacha” derlar, qashshoqni necha qatla bosib, qalin kishisin qirg’oni uchun Olachi de-de hasrati iste’mol bila Olacha bo’libtur”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.Nazarova. “Boburnoma” tilining sintaktik qurilishi. Dokt. diss. — T.: 1980y.
2. H.Qudratullaev. Boburning adabiy-estetik qarashlari. -T.: Fan, 1983y.
3. S.Hasanov. Boburning „Risolay aruz“ asari. -T.:1986y.
4. G’aybulloh as-Salom, N.Otajon. Jahongashta „Boburnoma“ — T.:1996y.